

THE STUDY OF DEXIS IN UZBEK LANGUAGE

Sarbarova Dilnoza Nosirjon qizi

Master's Degree From Alisher Navoi University of Uzbek Language and Literature

ANNOTATION

This article is about deixis and its study. Research on this issue in Uzbek linguistics has been analyzed.

Keywords: dexterity, deictic phrase, addressee, addressee, speech activity, discourse, pragmatics.

INTRODUCTION

Jamiyatda insonlar til vositasida muloqotga kirishadi. Til insonlar o'rtasidagi muloqot vositasi bo'libgina qolmay, ularning dunyoni anglashlarida va anglaganlarini o'zgalarga anglatishlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan noyob hodisa sanaladi. Tilda undan foydalanuvchi har bir shaxsning dunyoqarashi, olamni idrok etishi ham namoyon bo'ladi. Til o'ziga xos jihatlarga ega murakkab va ko'pqirrali hodisadir. Til nafaqat tashqi olamni, balki bir vaqtda undan foydalanuvchiga xos xususiyatlarni, ularning ichki olamini ham o'zida namoyon qiladi.

Keyingi yillarda qilingan tadqiqotlarda til birliklarining ifoda imkoniyatlarini ochib berishda, ularning mazmuniy tuzilishini belgilashda nutqiy vaziyat, kontekst, til egalarining nutq obyektiga haqidagi umumiy bilimlari va til ko'nikmalari kabi omillar ham muhim ahamiyatga egaliga e'tiborga qaratildi. Buni tilshunoslikda yangi-yangi yo'nalishlarning yuzaga kelishi, yangicha qarashlarning paydo bo'lishi ham tasdiqlab turibdi. Tilda aks etgan voqelik har doim ham hamma axborotni ifodalayvermaydi. So'zlovchi o'zining pragmatik maqsadiga muvofiq tarzda ba'zi axborotlarni yashirin ifodalaydi. "Nutqda so'zlovchining maqsadidan kelib chiqqan holda til birliklari o'rtasidagi mazmuniy aloqani topish, kontekstga murojaat qilish va u orqali nutq ishtirokchilariga ma'lum bo'lgan axborotni tiklash kabilar *deyksis* hodisasini tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirdi". [2.7]

«Deyksis» so'zining asl yunoncha ma'nosi «ko'rsatish», «ishora» bo'lib, ilmiy qo'llanishda lison vositasida «voqelikka ishora, ko'rsatish» mazmunini olgan. Ko'rsatish, ishora vazifasini ado etuvchi birliklarni *deyktik ibora* deb atashadi». [5.154] «Deyktik iboralar kommunikativ hodisa-uzatilayotgan axborotning ma'lum qismlarini alohida ta'kidlash, aniqlashtirish uchun xizmat qilishadi» [5.164]

Bugungi kunda tilshunoslikda kommunikativ jarayon paytida muloqot ishtirokchilari va ularning ijtimoiy mavqeyi, emotsional holati; nutq sodir bo'lgan zamon, makon; nutq qaratilgan shaxs, predmet, harakat-holat, voqea-hodisa, belgi, miqdor kabilarga til birliklari yoki boshqa belgilar orqali ishora qilish *deyksis* hodisasi sifatida talqin etiladi. Boshqacha aytganda *deyksis* leksik va grammatik vositalarning ishora qilish vazifasini anglatuvchi tushuncha sifatida nutqiy akt ishtirokchilari hamda jumla tarkibiy qismlari denotativ mazmunining ahamiyatligini ko'rsatishga xizmat qiladi [12] Nutq faoliyati va deyksis o'zaro chambarchas hodisalar bo'lib, deyksis nutqda til birliklarning ishora qilish xususiyatini yuzaga chiqaruvchi kommunikativ kategoriya sanaladi. Til tizimi markazida deyksis voqelikni ekstralingvistik

(pragmatik aspektida) va lingvistik (ifodaning aniq lisoniy vositasi) omillar asosida ko'rsatuvchi hodisa sifatida turadi [6.8]. Shunga ko'ra deysisni yuzaga chiqaruvchi vositalarni ikki turga bo'lish mumkin: lingvistik va ekstralingvistik vositalar.

Deyksis haqida monografik tadqiqot olib borgan N.A.Srebryanskaya, deysis ishora qilar ekan, haqli ravishda nimaga ishora qiladi, degan savol tug'iladi deydi hamda ushbu savolga javob tariqasida Ch.Filmorning «deysis – bu so'zlovchi shaxsi va adresatga, fikr aytilayotgan makon va zamonga ishora» degan fikrini keltiradi» [6.8]

Deyksis tilda o'ziga xos semantik maydon hosil qilib, uning markazida nutq ijodkori, ya'ni so'zlovchining o'zi turadi. «Deyksis so'zlovchining nutq faoliyati jarayonida ma'lum makonda joylashganligini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan gapirganda, deysis diskurs darajasida o'rganilishi kerak hamda «havolaning maxsus holati» sifatida e'tirof etilishi mumkin».[8.17]

O'zbek tilshunosligida deysis ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. S.Rahimov deysisni birinchi marta qiyosiy-tipologik aspektida o'rgangan. Olim o'z monografiyasida tilshunoslikda deysis hodisasi, uning o'rni va ahamiyati, turlari, morfologik, leksik vositalari, til tizimidagi o'rni haqida so'z yuritgan. O'zbek tilining ayrim deyktik birliklarini ingliz tili materiallariga qiyosan o'rgangan [4.90]

O'zbek tilshunosligida deyktik birliklarning qo'shma gap tarkibida qo'llanish xususiyatlari haqida N.Mahmudov so'z yuritgan. Tilshunos olim qo'shma gaplarning shakliy-mazmuniy tuzilishini tahlil etar ekan, ularni turlarga ajratishda deyktik birliklarning bosh gap tarkibida ishtirok etishiga ko'ra tasniflaydi. Bu tasnifga ko'ra ergashgan qo'shma gaplar bosh gaplarda havola bo'lakning ishtirokiga ko'ra havola bo'lakli va havola bo'laksiz gaplarga ajratiladi. N.Mahmudov *havola bo'lak* deganda deyktik belgilarni nazarda tutadi va deyktiklar mazmunan kuchsiz, bo'sh so'zlar sifatida voqea, belgi, narsalarni bevosita ifodalamay, ularga ishora, havola qilishini qayd etadi [3.243]

Sh.Safarov «Pragmalingvistika» monografiyasida deysisning lingvistik tabiati, anafora bilan munosabati, turlari, jahon tilshunosligida o'rganilishi kabi umumnazariy masalalar yoritilgan [5.178].

O'zbek tilida matnning pragmatik jihatdan o'rgangan M.Hakimov deyktik birliklarning ishora obyektiga gapda bevosita aks etmasligi, unga kontekst orqali aniqlik kiritilishi, deyktik birliklarning nutq subyekti yashirin maqsadlari haqida xabar berishi xususida fikr yuritiladi [10.15] Olim keyingi tadqiqotlarida ham deysis hodisasining pragmalingvistikadagi o'rni, uning yuzaga kelish tarixi, anafora hodisasi bilan munosabati kabi masalalarga ham alohida e'tibor qaratgan. [11]

Ta'kidlab o'tish kerakki, deysis hodisasi ko'proq qiyosiy-tipologik tadqiqotlarda keng yoritilgan. Tadqiqotchi G.Boltaqulova «Ingliz va o'zbek tillarida temporal va uning deyktik xususiyatlarining qiyosiy-funksional tadqiqi» nomli dissertatsiyasida ingliz va o'zbek tillaridagi zamon deysisini hosil qiluvchi birliklar haqida fikr yuritgan. Deyktik birliklarning matndagi o'rni va ahamiyati, temporal sintaksemalarni shakllantirishdagi roli kabi masalalarga oydinlik kiritilgan [2]. A.Shermatov nomzodlik dissertatsiyasida ingliz tilida deysisning ifodalanishi masalasini yoritgan. Tadqiqotchi dissertatsiyasida ilmiy-texnik matnlarida deyktik birliklarning qo'llanish xususiyatlari, ularning turlarini tahlil qilgan [8].

O'zbek tilshunosligida bolalar nutqining pragmatik xususiyatlarini o'rgangan M.Qurbonova bolalar nutqida deysisning qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratgan. Tilshunos olim deysis

lisoniy birliklarning funksional xususiyatini aks ettiruvchi barcha tillarga xos universal hodisa hisoblanishini, uning asosiy mohiyati tildagi verbal hamda noverbal vositalar yordamida tashqi olamdagi narsa-hodisalarga ishora qilish ekanligini ta'kidlaydi [9.50]

O'zbek tilida segment qurilmalarni tadqiq qilgan M.Umurzoqova segment qurilmali gaplarda segment bo'lakning korrelyati sifatida ko'rsatish olmoshlari kelishi, segment qurilmalarni izohlab kelgan asosiy gap tarkibidagi deysis turli predmet, shaxs, hodisalarga ishora qilishi mumkinligini xarakterli misollar asosida dalillaydi [7.22]

Xulosa qilib aytganda, deysis hodisasi har bir shaxs nutqida o'ziga xos hodisa sifatida namoyon bo'ladi hamda muloqotning amalga oshishida muhim rol o'ynaydi. Uning o'ziga xos xususiyatlari ayniqsa she'riy matnlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Болтақулова Г.Ф. Инглиз ва ўзбек тилларида темпораллик ва унинг дейктик хусусиятларининг қиёсий-функционал тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) дисс. ... автореф. – Тошкент, 2018. – 54 б.
2. Давлатова Р. Ўзбек тилининг дейктик birlikлари. Филол. фан. док. (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2020.
3. Маҳмудов Н. Эргаш гаплар таснифи масаласи. // Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси / Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. – Тошкент: Фан, 1992.
4. Рахимов С. Речевая коммуникация и проблема дейксиса в разносистемных языках. – Тошкент: Фан, 1989.
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008.
6. Сребрянская Н.А. Дейксис и его проекции в художественном тексте. – Воронеж, 2005.
7. Умурзоқова М. Ўзбек тилида сегмент қурилмаларнинг лингвопрагматик тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа док (PhD) дисс. ... автореф. – Тошкент, 2019.
8. Шерматов А. Инглиз илмий-техник матнида дейксиснинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008.
9. Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док. (DSc) дисс. – Тошкент, 2018. – Б.50.
10. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент. 2001.
11. Ҳақимов М. Прагмалингвистик тадқиқотлар тарихи. – Фарғона, 2020.
12. <http://www.textologia.ru/slovari/lingvisticheskie-terminy/deyksis-v-lingvistike/?q=486&n=2200/> Лингвистический энциклопедический словарь //